QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i10.035

UO‘K: 81’373.21:930.85(575.1)

# FARG‘ONA VODIYSI «MUG‘» TOPONIMLARI: ETIMOLOGIYA VA TARIXSHUNOSLIK

***Aloxunov Alisher Axmadjonovich***
*FDU O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi dotsenti,*
***https://orcid.org/0000-0002-2210-990X***
***Sobirov Alizoda Alisher o‘g‘li***
*FDU O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi o‘qituvchisi*
***https://orcid.org/0009-0006-9857-525X***

**Annotatsiya.** Maqolada Farg‘ona vodiysidagi «mug‘» komponentli toponimlarning kelib chiqishi, semantikasi va tarixshunosligi Mug‘poshsho yodgorligi misolida tahlil qilinadi. Qadimgi yozma manbalar, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar va dala sharoitida qayd etilgan xalq rivoyatlari qiyosiy o‘rganilib, Zarafshon vodiysidagi Muq-qal’a hamda Istaravshandagi Mug‘teppa yodgorliklari bilan qiyoslanadi. «Mug‘» atamasining etimologiyasi, zardushtiylik bilan aloqasi va toponimlardagi tarixiy-ma’noviy xususiyatlari yoritiladi. «Mug‘lar»ni alohida etnos sifatida talqin qilish hamda ularni qalmoqlar bilan bog‘lash qarashlari tanqidiy baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona vodiysi, toponimika, «mug‘», maguš, majus, zardushtiylik, Mug‘poshsho, Mug‘tepa, Muq-qal’a, xalq rivoyatlari, xalq etimologiyasi, tarixshunoslik.

**Аннотация.** В статье анализируются происхождение, семантика и историография топонимов с компонентом «муг» в Ферганской долине на примере городища Мугпошшо. Сопоставляются письменные источники, исторические исследования и полевые записи народных преданий, привлекаются памятники Мук-кала в долине Зеравшана и Мугтеппа в Истаравшане. Рассматриваются этимология термина «муг», его связь с зороастризмом и значение в топонимии. Критически оцениваются представления о «мугах» как отдельном этносе и их отождествление с калмыками.

**Ключевые слова:** *Ферганская долина, топонимика, «муг», maguš, маджус, зороастризм, Мугпошшо, Мугтепа, Мук-кала, народные предания, народная этимология, историография.*

**Abstract.** This article examines the etymology, semantics and historiography of toponyms containing the element “mug” in the Fergana Valley, focusing on the Mugposhsho archaeological site. Written sources, historical studies and field-recorded oral traditions are

compared with evidence from Muq-qal’a in the Zeravshan Valley and Mugteppa in Istaravshan. The study explores the term’s etymology, its association with Zoroastrianism and its significance in place names. Interpretations of the “mugs” as a distinct ethnic group and their identification with the Kalmyks are critically assessed.

**Keywords:** Fergana Valley, toponymy, “mug”, maguš, majūs, Zoroastrianism, Mugposhsho, Mugtepa, Muq-qal’a, folk legends, folk etymology, historiography.

**KIRISH**. Farg‘ona vodiysining arxeologik xaritasida «mug‘» komponentli nomlar alohida guruhni tashkil etadi: Mug‘tepa, Mug‘qal‘a, Mug‘xona, Mug‘qo‘rg‘on va boshqalar. Farg‘ona tumanidagi Mug‘poshsho (Mug‘ podshoh tepa) shahar xarobasi ham shu guruhga kiradi. Bunday nomlar odatda islomgacha bo‘lgan davrga oid yodgorliklarga nisbatan qo‘llanadi va mahalliy aholining o‘tmish haqidagi tasavvurini aks ettiradi.

«Mug‘» atamasining ma’nosi haqida adabiyotda turli qarashlar mavjud. XIX asr oxirida havaskor arxeologlar mug‘larni alohida xalq deb hisoblagan bo‘lsa [12], sovet davri tadqiqotchilari bu nomni zardushtiy kohinlar bilan bog‘lagan [6; 10]. Mahalliy rivoyatlar va ommabop adabiyotda esa atama boshqa xalqlar, xususan qalmoqlar bilan ham qorishtiriladi. Bu qarashlar hozirgacha bir joyda to‘planib, tanqidiy baholanmagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tadqiqotning manba bazasi to‘rt guruhdan iborat. Birinchi guruh atamaning qadimgi shakllarini aks ettiruvchi yozma manbalar: Gerodot «Tarix»i [8] va Behistun yozuvi [3], shuningdek, ularga oid ilmiy tadqiqotlar [1; 7]. Ikkinchi guruh mahalliy tarixshunoslik: Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi bayonnomalari [12] va Is’hoqxon Ibratning «Farg‘ona tarixi» [9]. Uchinchi guruh sovet arxeologlarining asarlari: A.N. Bernshtam [6] va B.A. Litvinskiy [10] tadqiqotlari, Zarafshon vodiysidagi Mug‘ tog‘i [13; 14] va Istaravshandagi Mug‘teppa [11; 15] materiallari. To‘rtinchi guruh Farg‘ona tumanidagi Log‘on qishlog‘i aholisidan yozib olingan og‘zaki ma’lumotlar [4].

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va etimologik tahlil, manbashunoslik tanqidi va folklor syujetlarini motivlar bo‘yicha qiyoslash usullari qo‘llandi. Har bir ma’lumotning qachon, kim tomonidan va qanday sharoitda qayd etilgani aniqlanib, boshqa manbalar bilan solishtirildi. Toponimlar manbada keltirilgan shaklida berildi.


**NATIJA VA MUHOKAMA**

Gerodot ma’lumotiga ko‘ra, Midiya aholisi olti qabilaga bo‘lingan, ulardan biri magilar bo‘lgan [8, I, 101]. Qadimgi fors tilidagi *maguš* shakli Behistun yozuvida mil. avv. 522-yilda hokimiyatni egallagan Gaumataga nisbatan qo‘llangan [3]. Tadqiqotchilarning fikricha, magilar kohinlik vazifasini meros qilib olgan tabaqa bo‘lgan, keyinchalik bu nom zardushtiy kohinlarga nisbatan qo‘llana boshlagan [1; 7]. Sosoniylar davrida oliy kohin unvoni – *mowbed* (*magu-pati*, «magilar boshlig‘i») ham shu ildizdan yasalgan [1]. Atama oromiy tili orqali arab tiliga *majūs* shaklida o‘tgan va zardushtiylarni anglatgan. Qur’oni karimda majuslar alohida diniy jamoa sifatida tilga olinadi [5]. Atamaning rivojlanish bosqichlari 1-jadvalda va 1-rasmda umumlashtirilgan.

*1-jadval*

**«Mug‘» atamasining shakl va ma’no jihatidan rivojlanishi**

| Davr va til | Shakli | Ma’nosi | Manba |
|---|---|---|---|
| Qadimgi fors (mil. avv. VI asr) | maguš (magu-) | midiya qabilasi; kohinlar tabaqasi | [1; 3; 8] |
| O‘rta fors (Sosoniylar davri) | mog‘, mowbed | zardushtiy kohin; oliy kohin | [1; 7] |
| Arab (VII asrdan) | majūs | zardushtiylar, otashparastlar | [5] |
| Yangi fors, o‘zbek va tojik | mug‘ | otashparastlar; islomgacha bo‘lgan aholi | [6; 9; 10] |




**1-rasm.** «Mug‘» atamasining shakl va ma’no jihatidan rivojlanishi hamda uning toponimik va folklor qatlamlari (muallif tuzgan).

Manbalarda qayd etilgan «mug‘» komponentli nomlar 2-jadvalda jamlangan. Ularning barchasi islomgacha bo‘lgan yodgorliklarga – shahar xarobalari, qo‘rg‘onlar va qabristonlarga nisbatan qo‘llangan.

*2-jadval*

**Manbalarda qayd etilgan «mug‘» komponentli nomlar**

| Nom | Joylashuvi | Obyekt turi | Manba |
|---|---|---|---|
| Mug‘tepa («холм магов») | Koson xarobalari | shahar xarobasi | [6, 19-b.] |
| Mug‘-qo‘rg‘on | Koson atrofi | qabriston, qo‘rg‘on | [6, 25-b.] |
| Mug‘xona, Mug‘kalla, Mug‘ko‘zacha | Sirdaryoning o‘ng sohili | topilmalar va xarobalar nomlari | [12] |
| Mug‘tepa | Kosonsoy, Sariqo‘rg‘on qishlog‘i yaqini | qo‘rg‘on va xarobalar | [12] |

| Nom | Joylashuvi | Obyekt turi | Manba |
|---|---|---|---|
| Mug‘poshsho (Mug‘ podshoh tepa) | Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i yaqini | shahar xarobasi | [4] |
| Muq-qal’a (Mug‘ tog‘i) | Zarafshon vodiysi, Xayrobod qishlog‘i yaqini (Tojikiston) | VIII asr qal’asi; 81 ta hujjat topilgan | [13; 14] |
| Mug‘teppa | Istaravshan shahri (Tojikiston) | hukmdorlar qarorgohi joylashgan tepalik (II–VII asrlar) | [11; 15] |

«Mug‘» nomli xarobalarga ilmiy qiziqish 1895-yil dekabrida Toshkentda tuzilgan Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi faoliyati bilan boshlangan. To‘garak yig‘ilishlarida Farg‘ona va Sirdaryo havzasidagi «mug‘» nomli joylar haqidagi xabarlar muhokama qilingan. N. Jetmisboev ma’ruzasida mug‘lar alohida xalq bo‘lgani va bir vaqtlar O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgani qayd etilgan. 1896-yil 26-fevraldagi bayonnomada esa ular «olovga sig‘ingan, arablar istilosiga qadar shu yerlarda yashagan qadimiy xalq» sifatida ta’riflangan [12].

Is’hoqxon Ibrat «mug‘niy» deb ataladigan xarobalarni otashparastlardan, ehtimol, Afrosiyob davridan qolgan imoratlar deb izohlagan [9]. A.N. Bernshtam Koson xarobalarining mahalliy nomi «Муг-тепе», ya’ni «majuslar tepaligi» ekanini qayd etib, aholi islomgacha bo‘lgan yodgorliklarni zardushtiy kohinlarga nisbat berishini ta’kidlagan [6, 19-b.]. B.A. Litvinskiy ham O‘rta Osiyoda keng tarqalgan «mug‘» atamasini shu ildiz bilan bog‘lagan [10].

Farg‘ona vodiysidan tashqarida ham «mug‘» nomi bilan atalgan yirik yodgorliklar ma’lum. Ulardan eng mashhuri Zarafshon daryosi yaqinidagi Mug‘ tog‘i tizmasida joylashgan qal’a xarobasi. Mahalliy aholi uni Muq-qal’a deb ataydi. A.A. Freyman bu nomni «majuslar qal’asi» deb izohlab, aholi xarobani islomdan oldingi davr bilan bog‘laganini qayd etgan [13]. 1932-yil bahorida Xayrobod qishlog‘ilik cho‘pon bu yerdan qo‘lyozma topgan. 1933-yil kuzida A.Freyman rahbarligidagi ekspeditsiya xarobani qazib, jami 81 ta yozma yodgorlik to‘plagan. Ular qog‘oz, teri va yog‘och tayoqchalarga yozilgan, ko‘pchiligi so‘g‘d tilida, qolganlari xitoy va arab tillarida [13; 14]. Hujjatlar Panjikent hukmdori Devashtichning arxivi bo‘lgan. U o‘zini «So‘g‘d podshosi, Samarqand hokimi» deb atagan va qal’a 722-yilda arablar tomonidan egallangan [2; 13].

Ikkinchi misol Tojikistonning Istaravshan shahridagi Mug‘teppa. U shahar ustida taxminan 65 m ko‘tarilgan tepalik bo‘lib, II–VII asrlarda bu yerda Ustrushona hukmdorlarining saroy va istehkomlari joylashgan [11; 15]. 2025-yilda tepalikda sopol quvurlardan (quburlardan) yasalgan va alebastr qorishmasi bilan biriktirilgan suv o‘tkazgich qoldiqlari topilgan; u tepalikdagi qarorgohni suv bilan ta’minlagan bo‘lishi mumkin [15]. Shunday qilib, Muq-qal’a va Mug‘teppa misollari «mug‘» nomining Farg‘ona vodiysidan tashqarida ham islomgacha bo‘lgan, xususan hukmdorlar qarorgohi bo‘lgan mustahkam joylarga berilganini ko‘rsatadi.

Log‘on qishlog‘ining keksa aholisi Mug‘poshsho nomini «bu yerda qadimda mug‘lar yashagan» deb izohlaydi. Rivoyatlarga ko‘ra, bu joy qandaydir hukmdorning qarorgohi bo‘lgan, shahar halokati esa hukmdor qizining xiyonati bilan bog‘lanadi [4].

B.A. Litvinskiy Farg‘ona vodiysida yozib olgan afsonada esa «mug‘» so‘zi boshqacha ma’noda qo‘llangan [10]. Unga ko‘ra, qadimda tinmay mehnat qilib kun ko‘radigan odamlarni mug‘ deb atashgan. Mug‘ yigit kampirning qiziga uylanish uchun toshdan devor quradi, kampir esa har kuni unga bir dona tanga beradi. Yigit tangalarni xotiniga topshiradi, lekin xotin ularni har kuni onasiga qaytarib bergani ma’lum bo‘ladi. Aldanganini anglagan yigit o‘z joniga qasd qiladi.

Natijalar «mug‘» atamasining etnik emas, balki diniy-madaniy mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi. Qadimgi davrda magilar Midiya qabilalaridan biri bo‘lgan bo‘lsa-da, atama juda erta kohinlar tabaqasini, keyinchalik esa e’tiqod belgisini anglata boshlagan [1; 8]. Islom manbalarida *majūs* atamasi ma’lum bir xalqni emas, balki zardushtiylarni anglatgan [5]. Shu bois XIX asr oxiridagi «mug‘lar – O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan alohida xalq» degan qarash [12] manbalarda o‘z tasdig‘ini topmaydi.

Toponimlarda «mug‘» komponenti yodgorliklarni yaratgan aholining haqiqiy diniy mansubligini emas, balki keyingi davr aholisining ular haqidagi tasavvurini aks ettiradi. Islom tarqalgandan keyingi davrda islomgacha bo‘lgan har qanday xaroba «mug‘lardan qolgan» deb qabul qilingan. Shu sababli «mug‘» nomli yodgorliklarni zardushtiylik ibodatxonalari yoki zardushtiylar manzilgohlari deb talqin qilish uchun arxeologik dalillar talab etiladi. Masalan, Mug‘poshsho nomi «mug‘lar podshohi» yoki «mug‘lar podshohining qarorgohi» deb tarjima qilinishi mumkin, ammo bu yodgorlik egalarining diniy e’tiqodi haqida bevosita ma’lumot bermaydi.

Qiyosiy misollar yana bir qonuniyatni ko‘rsatadi: «mug‘» nomi ko‘pincha oddiy qishloq xarobalariga emas, balki islomgacha bo‘lgan hukmdorlar qarorgohlari – qal’alar, arklar va istehkomli tepaliklarga beriladi (Muq-qal’a, Istaravshandagi Mug‘teppa, Kosondagi Mug‘tepa). Mug‘poshsho nomidagi «podshoh» komponenti va mahalliy rivoyatlardagi «hukmdor qarorgohi» motivi ham shu qonuniyatga mos keladi. Demak, xalq xotirasida bunday nomlar ulkan devorli xarobalarni islomgacha bo‘lgan hukmron tabaqa bilan bog‘lagan [6; 13].

B.Litvinskiy yozib olgan afsonada «mug‘» so‘zining «mehnatkash oddiy odam» ma’nosida qo‘llanishi atamaning xalq tilida diniy mazmundan ijtimoiy mazmunga qarab siljiganini ko‘rsatadi [10]. Xalq xotirasida, shuningdek, islomgacha bo‘lgan va islomdan keyingi «g‘ayridin» bosqinchilar obrazlari qorishib ketgan. Masalan, Is’hoqxon Ibrat qalmoqlar hukmronligidan so‘ng hokimiyat arablar qo‘liga o‘tgan degan, xronologik jihatdan teskari tartibdagi fikrni bildiradi [9]. «Mug‘» atamasini «qalmoq» so‘zi bilan bog‘lash urinishlari ana shunday qorishuvning natijasidir. Bu talqinni ilmiy etimologiya deb bo‘lmaydi: jung‘or-qalmoqlarning yurishlari XVII–XVIII asrlarga to‘g‘ri keladi, «mug‘» nomi esa islomgacha bo‘lgan yodgorliklarga nisbatan qo‘llanadi; bunday tovush o‘zgarishi ham tilda tasdiqlanmagan.

Rivoyatlar yodgorlik tarixini tiklash uchun bevosita dalil bo‘la olmaydi. «Xoin qiz» motivi O‘rta Osiyo qal’alari haqidagi folklorda keng tarqalgan syujet bo‘lib, uni tarixiy fakt

sifatida qabul qilish mumkin emas. Shu bilan birga, rivoyatlarning ahamiyati katta. Birinchidan, ular xarobalarning nomi va «islomgacha bo‘lgan» degan tavsifini avloddan avlodga yetkazgan. Ikkinchidan, XIX asr oxirida havaskor arxeologlar «mug‘» nomli joylarning ko‘pchiligini aynan mahalliy aholining ko‘rsatmasi bilan aniqlagan [12]. Shu ma’noda toponimlar va rivoyatlar arxeologik razvedka uchun muhim yo‘naltiruvchi manba hisoblanadi.

**XULOSA**

«Mug‘» atamasi qadimgi forscha *maguš* asosiga borib taqaladi. U o‘rta forscha *mog‘* va arabcha *majūs* shakllari orqali avval zardushtiy kohinlarni, keyinchalik barcha otashparastlarni anglatgan. Farg‘ona vodiysidagi Mug‘tepa, Mug‘qal‘a, Mug‘xona, Mug‘poshsho kabi toponimlarda bu atama ma’lum bir etnosni emas, balki islomgacha bo‘lgan o‘tmish haqidagi umumlashgan tasavvurni ifodalaydi.

XIX asr oxirida ilgari surilgan «mug‘lar – alohida xalq» degan qarash va atamaning qalmoqlar bilan bog‘lanishi ilmiy jihatdan asoslanmagan. Ular xalq etimologiyasi mahsuli hisoblanadi. Rivoyatlar tarixiy fakt manbai bo‘lmasa-da, yodgorliklar xotirasini saqlagan va ularni aniqlashga yordam bergan. «Mug‘» komponentli toponimlarni xaritaga tushirish va ularni arxeologik ma’lumotlar bilan solishtirish Farg‘ona vodiysining islomgacha bo‘lgan yodgorliklarini aniqlash va o‘rganish uchun istiqbolli yo‘nalishdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dandamayev M.A. Magi // Encyclopaedia Iranica. Online edition. – 2000 (updated 2015). – URL: https://www.iranicaonline.org/articles/magi.
2. Grenet F., de la Vaissière É. The Last Days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology. – 2002. – Vol. 8. – P. 155–196.
3. Kent R.G. Old Persian: Grammar, Texts, Lexicon. – 2nd ed. – New Haven: American Oriental Society, 1953. – (American Oriental Series; Vol. 33).
4. Muallifning dala yozuvlari: Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i aholisidan yozib olingan og‘zaki ma’lumotlar, [2026-yil avgust].
5. Qur’oni karim. Haj surasi (22), 17-oyat.
6. Бернштам А.Н. Древняя Фергана: научно-популярный очерк. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1951. – 48 с.
7. Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи / пер. с англ. И.М. Стеблин-Каменского. – М.: Наука, 1987. – 303 с.
8. Геродот. История в девяти книгах / пер. и примеч. Г.А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.
9. Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи // Мерос / нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 266–326.
10. Литвинский Б.А. Курганы и курумы Западной Ферганы: раскопки, погребальный обряд в свете этнографии. – М.: Наука, 1972. – 258 с.
11. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1957. – 159 с.

12. Протоколы заседаний и сообщений членов Туркестанского кружка любителей археологии. Год I (11 декабря 1895 – 11 декабря 1896 г.). – Ташкент, 1896.

13. Согдийские документы с горы Муг. Вып. I: Описание, публикации и исследование документов с горы Муг / [отв. ред.] А.А. Фрейман. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – 90 с.

14. Согдийские документы с горы Муг. Вып. II: Юридические документы и письма / чтение, пер. и коммент. В.А. Лившица. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – 222 с.

15. Трубы соединяли алебастром: 1500-летний водопровод нашли археологи в Таджикистане // Вокруг света. – 2025. – 19 августа. – URL: https://www.vokrugsveta.ru/news/truby-soedinyali-alebastrom-1500-letnii-vodoprovod-nashli-arkheologi-v-tadzhikistane-id6508968/.